



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 10



ТОШКЕНТ-2025

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робидинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети


Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Шоҳистахон Улжаева ТАРИХИЙ ЙЎЛЛАР ЧОРРАҲАСИДА: АМИР ТЕМУР ВА ТЎХТАМИШХОН.....	5
2. Jummagul Abduraxmanova TOTALITAR TUZUM VA TA'LIM TIZIMIDAGI HOLAT (1925–1941 yillar).....	10
3. Гулнара Жолдасбаева ТНОГРАФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ КАРАКАЛПАКСКОГО ГЕРОИЧЕСКОГО ЭПОСА «КОБЛАН».....	17
4. Dilshod Abdullayev 1946-1958-YILLAR O'ZBEKISTON SSRDA O'RTA MAXSUS TA'LIM TIZIMIDAGI VAZIYAT.....	23
5. Фарзия Ансорова ЗВАНИЯ И ДОЛЖНОСТИ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ В ТРУДЕ «ТАЪРИХИ САЛИМЎЙ» МИРЗО МУХАММАДА САЛИМБЕКА.....	28
6. Faxriddin Yormatov O'ZBEKISTONDA NURONIYLARNI HAR TOMONLAMA QO'LLAB QUVVATLASHNING IJOBIY NATIJALARI.....	37
7. Шаходат Зайниддинова ОСОБЕННОСТИ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ, ПРОВЕДЕННЫХ В СИСТЕМЕ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ В ПОСЛЕДНИЕ ГОДЫ.....	43
8. Muborak Matyakubova XIVA XONLIGIDA IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGI: IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI.....	49
9. Diloram Ziyayeva IX-XII ASRLARDA O'ZBEK DAVLATCHILIGI. IJTIMOIIY, SIYOSIY-IQTISODIY HAYOTI. AJDODLARIMIZNING JAHON SIVILIZATSIYASI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI.....	55
10. Farxod Ziyayev XX ASRNING 20-30-YILLARIDA SOVET HOKIMIYATINING O'ZBEKISTONDA YURITGAN SIYOSATI, UNING MOHIYATI VA OQIBATLARI. SIYOSIY QATAG'ONLIK.....	60
11. Shaxodat Ruzmatova XIX ASRNING IKKINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI AHOLISINING IJTIMOIIY TUZILISHI.....	65
12. Fotima Shirinova TURKISTONDA MUSTABID SOVET TUZUMIGA QARSHI QUROLI HARAKAT.....	71




UDK: 9(575.1)02(575.1.) (09)

Muborak Madrimovna Matyakubova,
UrDU, Tarix kafedراسи dotsenti
E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

XIVA XONLIGIDA IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGI: IQTISODIY TARAQQIYOT OMILLARI

For citation: Mubarak M.Matyakubova. IRRIGATION AND AGRICULTURE IN THE KHIVA KHANATE: FACTORS OF ECONOMIC DEVELOPMENT. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 10.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17548875>

ANNOTATSIYA

Xiva xonligi iqtisodiyotida va aholining kundalik faoliyatida suv va u bilan bog‘liq sug‘orish ishlari muhim ahamiyat kasb etgan. Yangi kanallar qazish, yangi yerlarni o‘zlashtirish, sug‘orish ishlarini kengaytirish kabi masalalar xonlikning iqtisodiy hayoti va siyosiy mavqeini belgilashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Xiva xonligi iqtisodiy hayotining asosiy tarmoqlaridan dehqonchilikning rivojlanishi xonlik taraqqiyotida hal qiluvchi omil hisoblangan. Amudaryo va uning irrigatsiya tizimi orqali yaratilgan suv xo‘jaligi imkoniyatlari dehqonchilikni barqaror rivojlantirishga zamin yaratdi. Ushbu maqolada Xiva xonligida irrigatsiya, qishloq xo‘jaligi hamda iqtisodiy taraqqiyot omillari masalasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, iqtisodiy hayot, hunarmandchilik, qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, savdo-sotiq, irrigatsiya, sug‘orish inshootlari, kanallar.

UDK: 9(575.1)02(575.1.) (09)

Муборак Мадримовна Матьякубова,
УрГУ, доцент кафедры истории
E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

ИРРИГАЦИЯ И СЕЛЬСКОЕ ХОЗЯЙСТВО В ХИВИНСКОМ ХАНСТВЕ: ФАКТОРЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

Вода и связанные с ней ирригационные работы играли важную роль в экономике Хивинского ханства и повседневной жизни населения. Такие вопросы, как строительство новых каналов, освоение новых земель и расширение ирригационных работ, были одними из основных факторов, определявших экономическую жизнь и политическое положение ханства. Развитие сельского хозяйства, одной из основных отраслей экономики Хивинского ханства, считалось решающим фактором развития ханства. Возможности управления водными ресурсами, созданные Амударьей и ее ирригационной системой, заложили основу для устойчивого развития сельского хозяйства. В данной статье анализируются вопросы ирригации и сельского хозяйства в Хивинском ханстве и факторы экономического развития.

Ключевые слова: Хивинское ханство, экономическая жизнь, ремесла, сельское хозяйство, земледелие, животноводство, торговля, ирригация, ирригационные сооружения, каналы.

UDK: 9(575.1)02(575.1.) (09)

Mubarak M. Matyakubova,

UrSU, associate professor of the Department of History

E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

IRRIGATION AND AGRICULTURE IN THE KHIVA KHANATE: FACTORS OF ECONOMIC DEVELOPMENT

ABSTRACT

Water and related irrigation works played an important role in the economy of the Khiva Khanate and in the daily activities of the population. Issues such as the construction of new canals, the development of new lands, and the expansion of irrigation works were one of the main factors determining the economic life and political position of the khanate. The development of agriculture, one of the main branches of the economic life of the Khiva Khanate, was considered a decisive factor in the development of the khanate. The water management opportunities created by the Amu Darya and its irrigation system laid the foundation for the sustainable development of agriculture. This article analyzes the issue of irrigation and agriculture in the Khiva Khanate and the factors of economic development.

Index Terms: Khiva Khanate, economic life, crafts, agriculture, farming, livestock breeding, trade, irrigation, irrigation facilities, canals.

Kirish:

Atrofi unumsiz sahrolar bilan qamrab olingan Xorazmda dehqonchilik madaniyati juda qadim zamonlardan sun'iy sug'orish asosida vujudga kelgan Misr, Mesopomiya va Sharqning boshqa mamlakatlaridagidek taraqqiy topgan[1, b.206]. Xiva xonligi iqtisodiyotida va aholining kundalik faoliyatida suv va u bilan bog'liq sug'orish ishlari muhim ahamiyat kasb etgan. Bu masalada Abulg'ozixon, Munis, Ogahi va Bayoniylarning asarlarida ma'lumotlar berilgan. Y.G'.G'ulomov "Xorazm kabi asosiy farovonligi sug'orma dehqonchilik qilish bilan bog'liq bo'lgan mamlakatda irrigatsiyaga g'amxo'rlik qilish davlat ishi edi" [2, b.13] deb, Xorazm iqtisodiy hayoti ayniqsa, sug'orish ishlariga bevosita bog'liq ekanligini talqin etadi. Yangi kanallar qurish, yangi yerlarni o'zlashtirish, sug'orish ishlarini kengaytirish kabi masalalar xonlikning iqtisodiy hayoti va siyosiy mavqeini belgilashda asosiy omillardan biri edi[3, b.102].

Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Xiva xoni Abulg'ozixon davlatini boshqaruvidagi islohotlarida sug'orish tizimiga e'tibor qaratilishi o'zbeklarning sug'oriladigan yerlarga o'troqlashishini tezlashtirgan. Bu davrda bir qancha shahar va qal'alar qurilgan, rus davlati bilan diplomatik aloqalar tiklashga tashabbus ko'rsatgan[2, b.212]. Abulg'ozixonning xayrli ishlarini davomchisi Anushoh (1663-1686) hukmronligida Janubiy Xorazmda Shohobod va Yormish - ikkita katta kanal qurildi. Munisning hikoya qilishiga ko'ra, Anushoh davrida qurilgan Yormish kanalining qurilishiga o'ng qirg'oqdagi Kat shahrining suvsiz qolganligi sabab bo'lgan. Shahar aholisining suvga muhtojligini nazarga olib, chap qirg'oqdagi Yormish deb ataladigan kanalni qazish haqida buyruq bergan va u yerda Qiyot qal'asini qurdirgan. Eski Katda yashovchi aholi esa, yangi Qiyotga ko'chib o'tgan[2, b.209]. Yormish kanali Urganchdan 15 km sharqda Amudaryodan qazib o'tkazilgan. Kanalning uzunligi 96 km, o'rtacha kengligi 17,5 m, boshlanish qismining chuqurligi 2 m bo'lgan[4, b.120].

Ikkinchi kanal - Shohobod (xalq tilida Shovot) Xorazmda eng katta kanal hisoblanadi. Shohobod kanalining uzunligi 143 km, o'rtacha kengligi 30 m, o'rtacha chuqurligi 3,5 m. U Xonqa, Urganch, Shohobod, Toshovuz va Ilyali shaharlarining g'arbidan 6-7 km narida tamom bo'ladi. Shohobod kanalining qayta qurish sanasini ("purfayz") - mo'l-ko'l nomi bilan ataganlar. Bu so'z

harflarining son hisobini chiqarganda hijriy yili bilan 1092 (eramizning 1681) yiliga to'g'ri keladi[2, b.209].

M.Mahmudov yangi arnalar borasida so'z yuritib, 1815 yilda Muhammad Rahimxonning yirik amaldorlaridan biri – Qilich Niyozboy inoq tashabbusi bilan qazilgan va soqasi Cho'bolonchi qishlog'i yaqinidagi yirik kanal ajratib turishi, mazkur kanal (arna) Gurlan, Qilichboy, Mang'it tumanlarida yashayotgan o'zbek va turkmanlarning ehtiyojini to'laroq qondira boshlaganini yozadi[4, b.120].

Xorazmning bosh sug'orish shahobchasi Polvon kanalining 7 ta soqasi bo'lib, ularning ayrimlari bahor va yoz oylarida ko'milib qolar edi. Shu bois, 1826 yilda Xiva xoni Olloqulixon buyrug'i bilan Tuynuqli degan joyda yangi soqa ochildi. Daryo suvi hech qachon narigi qirg'oqqa ketmaydigan ushbu joy xalq tilida Doshsoqa (Toshsoqa) nomi bilan mashhur bo'ldi.

Sho'x Amudaryo suvini tartibga solishda Xorazm aholisi daryoni toshqin vaqtidagi o'pirishlari bilan juda ko'p band bo'lar edi. Bunday falokatning oldini olish va bundan saqlanish uchun odatda to'g'onlar qurishardi. Toshqin vaqtida Amudaryo suvi bilan to'ladigan qirg'oq atrofidagi tekislik mintaqaning deyarlik hamma joyida ba'zan bir necha qator bo'lib, butun Xorazm vohasi aholisining serdiqqat mehnati natijasida qurilgan katta dambalar – qochilar cho'zilib yotadi, - deb yozadi Y.G'ulomov[2, b.271].

Xorazm sug'orish tizimi ko'p mehnat talab qilishligi va murakkabligi tufayli miroblik tartibi doim Xiva xonligida katta va juda muhim o'rinni egallab kelgan. Miroblar xon atrofidagi hukmron doira tarkibiga kirgan[5]. XIX asr Xiva xronikalarida boshdan-oyoq bosh miroblarning muhim irrigatsion ishlarni tartibga solishda ishtirok etganliklari ko'rsatib o'tiladi. Xonlik tarixida Munis mirob va Ogahiy mirobning suv xo'jaligi sohasida mutaxassis ekanliklariga shubha yo'q.

Xorazmdagi kanal va ariqlarga Amudaryo har yili loy va qum aralash o'z quyqa-ko'chkilaridan 15–18 mln. m³.gacha oqizib keltirgan. Vegetatsiya paytlarida ariqlar tubiga 0,6–0,8 m. qalinlikdagi qum aralash loy cho'kib qolardi. Ularni tozalash uchun esa har yili 15–20 kun davomida 20–25 ming ishchi kuchi zarur bo'lardi. Odatda bu og'ir mehnat bahor va kuzda minglab dehqonlar va ularni boshqarib turgan miroblar zimmasiga yuklatilgan. Toshsoqa, Qilichboy-arna va boshqa yirik kanallarni qo'lda qazish uchun har bir hududga (qishloq yoki elat) chek bo'lib berilgan. Mabodo birorta elatga suv bormay qolsa, shu yerning mirobi hech qanday farmon yoki buyruq kutmasdan qazuvchilar bilan ishni boshlagan. Agarda Toshhovuz viloyati hududiga suv bormay qolsa, qazuvchilar kelib, suvni oqizmaguncha qaytib ketmaganlar[6, b.51].

Professor Y.G'ulomov sug'orilish tarixi borasida so'z yuritarkan, aynan qoraqalpoqlarning bu jarayondagi ishtirokiga to'xtalib o'tadi: “Qoraqalpoqlar XVIII asrning 50-yillari oxirida sug'orish sohasidagi tadbirlarini amalga oshirishda faol ishtirok etdilar. Ular faqat deltaning o'zidagina emas, balki uning atroflarida ham shunday yordam ko'rsatdilar” [2, b.223]. Q.Munirov ham Muhammad Amin inoq davrida qoraqalpoqlarning xonlikning sug'orilish ishlaridagi tadbirlarida ancha faol bo'lganliklarini tasdiqlaydi[3, b.104].

Tahlil va natijalar:

Xonlik iqtisodiyotining asosiy masalasi yerga egalik va davlat xazinasiga tushadigan tushumlar hisoblangan. Eng katta feodal yer va yer egasi xonning o'zi edi. Xonning deyarlik hamma markaziy shaharlarda o'ziga xos yerlari va bog'lari bo'lgan. Xon va uning avlodlariga tegishli ba'zi yerlar ularning ota-bobolaridan meros sifatida qolgan bo'lib, asrlar davomida vorislarga nasldan-naslga o'tib kelgan. Ogahiy asarlarida xonlarning qaysi shaharlarda yerlari va bog'lari borligi haqida ma'lumotlar keltiriladi va u yerda turli mevalarning mavjudligi va sug'orildaigan yerlarning eng yaxshi qismi bo'lganligini bilib olish qiyin emas[7].

Xiva xonligining arxiv hujjatlarini o'rgangan M.Yo'ldoshev yerga egalik tartibi bo'yicha quyidagilarni yozadi: “Xorazm xonligida yerga egalik shakllari XIX asrda quyidagi tusga kirgan edi. Yerlarning eng ko'pi xususiy kishilarga qarashli mulk yerlardan iborat edi. Bundan tashqari, vaqf yerlari, so'ngra esa davlat yerlari yoki podsholik yerlar bor edi” [8, b.98]. Q.Munirov akademik M.Yo'ldoshev tomonidan keltirilgan ma'lumotlarni tasdiqlagan holda shunday yozadi: “Juda katta xususiy yoki podsholik yerlarining xo'jayini bo'lgan xonning o'zi mamlakatning birinchi feodali edi. .. Biz xonlar qo'lida bo'lgan yerlarnin yirik feodal yer egaligining bir turi deb

hisoblaymiz”, deb yozadi deydi va yuqoridagilarga qo‘shimcha qilib, xonlar ixtiyorida bo‘lgan yerlar “mulki xolis”, “mulki xossa”, “amloki xossa”, “mulki maxsusa” va boshqa nomlar bilan keltirilishini aytib o‘tadi[3, b.118].

Xiva xonligida yer egaligi (dehqonchilik qilinadigan yerga egalik) ning uchta shakli mavjud bo‘lgan: 1. Davlat (xonlik), 2. Mulk (xususiy mulk yerlari), 3. Vaqf (diniy muassasalariga qarashli yerlar) yer egaligi. Mulkdor, amaldor, o‘rta va kambag‘al dehqonlarga ajratilgan yerlar mulk egaligi bo‘lib, ular atoi mulk va yorliqli mulk shaklida bo‘lgan[9, b.57].

Xiva xonligi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri dehqonchilik hisoblangan. Uning rivojlanishi Amudaryo daryosi va uning irrigatsion tarmoqlari bilan uzviy bog‘liq edi. Ob-havo va tuproq sharoitidan kelib chiqqan holda, xonlik hududida asosan g‘alla (ariq va suv keladigan joylarda bug‘doy va arpa), poliz mahsulotlari (tarvuz, qovun, bodring) va oziq-ovqat sifatida kartoshka, piyoz va turli sabzavotlar yetishtirilgan. Irrigatsiya tizimi - ya‘ni ariqlar, kanallar, to‘g‘onlar va suv omborlari mahalliy aholi mehnati bilan shakllangan bo‘lib, dehqonchilikni rivojlantirishda asosiy omil sifatida xizmat qilgan. Xorazm dehqonchiligida yer kuz va bahorda haydalgan. Xorazm tuprog‘i tez qurib qoladigan, ko‘p suv talab qiladigan tuproqdir. Bahor kelishi bilan avvaliga yer ikki-uch marta sug‘orilib, sho‘ri yuviladi. Keyinchalik ekinlar ekiladi. Yerni qadimdan ho‘kiz, otlar yordamida haydashgan[1, b.209]. Xiva xonligi qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yerlardan iborat maydonlarda amalga oshirilganligi sababli agrar sohadagi mahsulotlarni yetishtirish juda mashaqqatli mehnatni talab qilgan. Vohaning 90 foiz aholisi dehqonchilik ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan.

Ayrim kishilar qishda hunarmandlik, yozda esa dehqonchilik bilan shug‘ullanishar edi. Ularning don ekib, mo‘l xosil olishlari, bog‘dorchilikni mirishkorlik bilan rivojlantirishlari Xivaga kelgan ko‘pgina chet elliklarni qoyil qoldirardi[10,b.34]. A.Vamberi “Xiva mevalari shu qadar yaxshiki, ularga o‘xshashini nafaqat Eron va Turkiyada, balki butun Yevropada ham topish qiyin. Ayniqsa, Hazorapsning olmalari, Xivaning nok va uzumlari va uzoq Pekingacha mashhur bo‘lgan beqiyos ajoyib qovunlari tahsinga loyiq” [11,b.160] – deb ta‘riflaydi. Bog‘dorchilik ayniqsa shahar va qishloq atroflaridagi hovlilar, istirohat bog‘lari va saroylarga tutash hududlarda mavjud edi. Anor, uzum, olma, shaftoli kabi mevali daraxtlar yetishtirish xonlikda nafaqat oziq-ovqat ta‘minoti, balki ichki bozorda almashinuv vositasi ham edi. «Dili g‘aroyib» asarining muallifi Xorazmning meva, qovun va g‘allasi yaxshi bo‘lishi, xususan, urug‘i yantoqning tomiri orasiga solib suvsiz o‘stiriladigan mazali qovunlari, Hazoraspning shirin olmalari, shuningdek, mamlakatning turli joylarida yetishtiriladigan uzumning har xil navlari, o‘rik va tut daraxtlarining ta‘rifiga to‘xtalib o‘tgan. Bog‘dorchilikdagi an‘anaviy agrotexnika usullari, jumladan, daraxtlarni sun‘iy sug‘orish, tarbiyalash va emlash kabi amaliy bilimlar avloddan avlodga o‘tib, mahalliy agrar madaniyatning muhim qismiga aylangan. Xivada yetishtirilgan qovun-tarvuzlar, uzum va turli mevalarning maqtovi XIX asrda Xivaga tashrif buyurgan N.Muravyevning esdaliklarida ham keltirilgan[12,b.87]. Dehqonchilik va bog‘dorchilikda yer egaligi munosabatlari ham muhim o‘rin tutgan. Xiva xonligida dehqonchilik va bog‘dorchilik nafaqat iqtisodiy ta‘minlash vositasi, balki hududning ijtimoiy tuzilishi, soliq siyosati va aholining turmush darajasi bilan bevosita bog‘liq tarmoqlar bo‘lgan. Ular orqali iqtisodiy barqarorlikni saqlashga intilish xonlik siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblangan. Jumladan, Muhammad Rahimxon I davridagi islohotlar muayyan kamchiliklarga ega bo‘lsa-da, ijobiy xarakterga ega edi. Bu chora dehqonlarda xo‘jalik yuritishga qiziqish tug‘dirdi. Mehnat unumdorligini oshirib qishloq xo‘jaligining yuksalishiga olib keldi[13, b.64]. Mamlakatda dehqonchilik madaniyati rivojlanish bosqichiga qadam qo‘ydi.

“Men, Xivadagi ishlov berilgan yerlar, o‘simliklarni hatto Germaniyada ham ko‘rmaganman, barcha hovlilar ariqlar bilan o‘rab olingan, har joy, har joyida ko‘priklar qurilgan. Mevali daraxtlar orasidagi o‘tloqdan yurib borar ekanman, behisob qushchalar meni o‘z sayroqlari bilan xursand qilishdi. Oddiy loydan tiklangan uylarning ushbu go‘zal joylarda qad ko‘tarib turishlari xushsurat manzarani namoyon qiladi, deb yozadi N.N.Muravev[12,b.88]. Uning ta‘kidlashicha, Xiva xonligida dehqonchilik juda og‘ir mehnat asosida tashkil etilgan. Yerlar qumloq bo‘lib, mineral o‘g‘itlar bo‘lmaganidan go‘nglardan foydalanilgan. Barcha yerlar sun‘iy sug‘orishga asoslangan. Xiva atrofi bog‘-rog‘larga boy. Ayniqsa bu yerda uzumning turli

navlaridan yaxshi hosil olinadi. Uning quritilgan turi juda shirin. Uzumdan tashqari olmaning turli navlari, nashvati, tut, anor, gilos, olxo'ri, nok, bodom va boshqa mevalar juda ko'p bo'lgan[14, b.44]. Xonlik poliz mahsulotlarini yetishtirish borasida ham ancha tajribaga ega edi. A.Jenkinson (XVI asr) Xorazmning suvli qovunlari va shirin tarvuzlarini alohida qiziqish bilan tasvirlagan hatto, Xorazmning ko'ktarnay navli qovuni va tut daraxtlari Balxda meva-sabzavotlarning navini yaxshilash maqsadida amalga oshirilgan tadbir (XVII asr) uchun olib ketilgan bo'lib, bu hol "Baxr ul-asror" asarida alohida e'tirof etigan[15, b.381].

Umuman, Qo'ng'iro't sulolasining dastlabki hukmdorlari xizmati bilan sug'oriladigan yerlar maydoni kengayib, xo'jalik aylanmasiga kiritildi. Natijada dehqonchilik ishlari rivojlandi. Bog'dorchilik, meva yetishtirish, turli oziq-ovqat va boshqa turlardagi ekinlar qatorida poliz-sabzavot mahsulotlari hajmi ham ortib bordi.

XIX asrda Xivada dehqonchilikning asosiy turi g'allakorlikdan iborat bo'lib qolgan edi. Ekinbop yerlarning yarmidan ko'prog'i bug'doy va jo'xori. Beshdan bir qismiga yaqini paxta ekish uchun ajratilar edi. Yerlarning qolgan qismi, taxminan, bab-baravar taqsimlanib, arpa, sholi, zig'ir, kunjut, qovun va tarvuz ekilar edi. Garchi bog'dorchilik xo'jalikda ancha kam ro'l o'ynasa ham, lekin Xiva bog'larida o'riklar, shaftolilar, toklar, olmalar, anorlar, noklar va boshqa mevalar ham o'stirilar edi[8, b.80].

Xulosa va takliflar:

Dehqonchilikning o'sishi aholi turmush darajasini yaxshilash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda ichki bozorda iqtisodiy barqarorlikka erishishga xizmat qilgan. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'pligi soliq va to'lovlar tizimini yo'lga qo'yish, bozor munosabatlarini rivojlantirish uchun asosiy manba vazifasini o'tagan.

Iqtiboslar/Сноски/Referenc

1. Худойбергаев К. Хоразм хонлари. Тошкент: Академнашр, 2019. - Б.206. (Khudoybergaev K. Khans of Khorezm. Tashkent: Akademnashr, 2019. -P.206.)
- 2.Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. Тошкент, 1959. – Б.13. (Gulomov Y. History of irrigation of Khorezm. Tashkent, 1959. – P.13.)
- 3.Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). Тошкент: Фафур Фулом, 2002. -Б.102. (Munirov K. Historiography in Khorezm (XVII-XIX and early XX centuries). Tashkent: Gafur Ghulom, 2002. – P.102.)
- 4.Маҳмудов М. Хоразм тарихи истиқлол кўзгусида.Урганч, 2013. – Б.120. (Mahmudov M. The history of Khorezm in the mirror of independence. Urgench, 2013. – P.120.)
- 5.Мунис ва Огаҳий. Фирдавс ул иқбол. № 571 (520 а, 556-варақ) (Munis and Ogahi. Firdaus ul Iqbal. No. 571 (520 a, sheet 556)
- 6.Sharipov U. Xorazm vohasi sug'orilish ishlari va unda sug'orish inshootlarining ro'li (XIX asr oxiri – XXI asr boshlari). - Toshkent:Bookmani Print, 2024. -Б. 51.(Sharipov U. Irrigation works of the Khorezm oasis and the role of irrigation structures in it (late 19th century - early 21st century). Tashkent: Bookmani Print, 2024. – P. 51.)
- 7.Огаҳий. Риёз уд-давля.Мазкур қўлёзма фонди. Инв. № 5364 / II 285– варақ; Зубдат ут – таворих . Инв. 5364 / III 393 а – варақ; Огаҳий . Жомий ул-воқеоти султаний. Инв. № 9786. 51.б-52 а.- варақлар; Гулшани давлат. Инв. № 7572. 71 б – варақ; Шоҳид ул-иқбол. Инв. № 572.23 а-б-варақ (Россия Фанлар академияси, Шарқшунослик институти. Санкт-Петербург бўлими). (Ogahi. Riyaz ud-dawla. The manuscript fund. Inv. No. 5364 / II 285– leaf; Zubdat ut – tawarikh . Inv. 5364 / III 393 a – leaf; Ogahi. Jami' ul-vejaoti sultani. Inv. No. 9786. 51.b-52 a.- leaves; Gulshani dawlat. Inv. No. 7572. 71 b – leaf; Shahid ul-iqbal. Inv. No. 572.23 a-b-leaf (Russian Academy of Sciences, Institute of Oriental Studies. St. Petersburg Department).
8. Ўлдошев М.Ў. Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши.- Тошкент, 1959. -Б. 98. Муниров Қ. Хоразмда тарихнавислик (XVII-XIX ва XX аср бошлари). Тошкент: Фафур Фулом, 2002. – Б. 112. (Yuldashev M.Y. Feudal land ownership and state structure in the

Khiva Khanate. Tashkent, 1959. -P. 98. Munirov K. Historiography in Khorezm (XVII-XIX and early XX centuries). Tashkent: Gafur Ghulom, 2002. – P. 112.)

9.Маткаримова С. Хива хонлигининг Қўнғиротлар сулоласи даври тарихшунослиги (XIX аср- XXI аср боши) - Тошкент: Янги нашр, 2016. –Б. 57. (Matkarimova S. Historiography of the Khiva Khanate during the Kungrad Dynasty (19th century - early 21st century) Tashkent: New edition, 2016. –P. 57.)

10. Хива минг гумбаз шаҳри. - Тошкент: Шарқ, 1997, -Б. 34. (Khiva is the city of a thousand domes. Tashkent: Sharq, 1997, - B. 34.)

11.Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Москва: издание А. И. Мамонтова, 1867.- С.160. (Vambery A. Puteshestvie po Sredney Azii. - – Moscow: izdanie A. I. Mamontova, 1867. – S.160.)

12.Муравьев Н.Н. Путешествие в Туркмению и Хиву. М., 1822, ч.2, - С. 87- 88. (Muravev N.N. Puteshestvie v Turkmeniу i Khivu. M., 1822, ch. 2, - S. 87-88.)

13.Юлдашев М.Ю. К истории крестьян Хивы XIX века. -Тошкент: «Фан», 1966. –Б. 64. (Yuldashev M.Yu. History of Christian XIX century. -Т.: «Science», 1966. -B. 64.)

14.Сапарбоев Б. Муҳаммад Раҳимхон I даврида Хива хонлиги тарихи (1806-1825- йй.). Бухоро, Дурдона нашриёти, 2023. – Б. 44. (Saparboev B. History of the Khanate of Khiva during the reign of Muhammad Rahimkhan I (1806-1825). Bukhara, Durdona publishing house, 2023. – B. 44.)

15.Аллаева Н. Хива хонлигининг дипломатияси ва савдо алоқалари. Тошкент: Академнашр, 2019. – Б.381. (Allaeva N. Diplomacy and trade relations of the Khiva Khanate. Tashkent: Akademnashr, 2019. – P. 381.)

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000